CHORVACHILIK VA NASLCHILIK ISHI

ISSN-2181-9459 Ilmiy-amaliy jurnal Maxsus son 1. 2024

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

2024

Samarqand 2024

"CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI KO'PAYTIRISH VA SIFATINI YAXSHILASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH" mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

"YAYLOV CHORVACHILIGI VA QORAKO'LCHILIK:MUAMMOLAR VA SOHADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR" XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI TO'PLAMI

"CHORVACHILIK MAHSULOTLARIGA BO'LGAN TALABNI QONDIRISHDA GENETIKA VA OZIQLANTIRISHNING GLOBAL VA MILLIY MUAMMOLARI" mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA 2024-yil 17-may

"CHORVACHILIK MAXSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA ISHLASHNING MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI" mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 2024-YIL 6 - IYUN



Таҳрир ҳайъати:

Х.Юнусов – *профессор, б.ф.д., Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган чорвадор, СамДВМЧБУ ректори*
Ш.Умаров – *қ.х.ф.д., профессор*
А.Даминов – *в.ф.д., профессор*
Д.Холмирзаев – *қ.х.ф.д., профессор*
Н.Юлдашов – *в.ф.д., профессор*
Р.Турганбаев – *қ.х.ф.д., профессор*
М.Достмухаммедова – *қ.х.ф.д., профессор*
Ш.Амиров – *профессор*
А.Газиев – *қ.х.ф.д.*
Н.Рўзибоев – *қ.ҳ.ф.д.*
Э.Шаптаков – *қ.ҳ.ф.д.*
У.Соатов – *қ.ҳ.ф.д.*
Д.Юлдашев – *қ.ҳ.ф.н.*
А.Нурматов – *қ.ҳ.ф.н.*
Ҳ.Ғиёсов – *қ.ҳ.ф.н.*
Б.Бойбулов – *қ.х.ф.н.*
Ш.Мадрахимов – *қ.х.ф.н.*
Ш.Каримов – *қ.х.ф.н., доцент*
С.Сатторов – *қ.х.ф.н., доцент*

Бош муҳаррир: Абдунаби Аликулов
Дизайнер: Хусан Сафаралиев
Мусаҳҳих: Муножат Мўминова
Таржимон: Нодирахон Хашимова

Муассислар:
“Agrozoovetservis” МЧЖ,
“Chorvador-Gazetasi” МЧЖ

16+

Ўзбекистон Республикаси Матбуот ва ахборот агентлигида 2018 йил 23 февралда 0920-рақам билан рўйхатга олинган

Нашр индекси: 1308

Манзилимиз: 100022, Тошкент шаҳри, Қушбеги кўчаси, 22-уй.
Тел.: 99 307-01-68.

E-mail: chorvador@ list.ru,
www.slib.uz

Махсус сон 2 2023 й.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

XUSUSIY ZOOTEXNIYA kafedrasi

“CHORVACHILIK MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI KO‘PAYTIRISH VA SIFATINI YAXSHILASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”

mavzusida

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA HISOBOTI



Samarqand-2024

Editorial board:

X.Yunusov – *Rector of Samarkand Institute of Veterinary Medicine, doctor of biology, professor*
Sh.Umarov – *doctor of agriculture – professor*
A. Daminov – *doctor of veterinary – professor*
D.Kholmirzaev – *doctor of agriculture – professor*
N.Yuldashov – *doctor of veterinary – professor*
R. Turganbaev – *doctor of agriculture – professor*
M. Dostmuhammedova – *doctor of agriculture – professor*
Sh.Amirov – *professor*
A.Gaziev – doctor of agriculture
N.Ruziboev – *doctor of agriculture*
E.Shaptakov – *doctor of agriculture*
U.Soatov – *doctor of agriculture*
D. Yuldashev – *doctor of agriculture*
A.Nurmatov – *doctor of agriculture*
H.Giyasov – *doctor of agriculture*
B.Boybulov – *doctor of agriculture*
Sh. Madraximov – *doctor of agriculture*
Sh.Karimov – *doctor of agriculture*
S.Sattorov – *doctor of agriculture*

Chief Editor:
Abdunabi Aliqulov
Designer:
Husan Safaraliev
Correct
Munojat Muminova
Translator
Nodiraxon Xashimova

Founders:
"Agrozoovetservis" Co.,Ltd.
"Chorvador-Gazetasi" Co.,Ltd.

16+

Registered in Uzbekistan Press and News agency by 0920; 23.02.2018

Indeks: 1308

Address: Qushbegi 22, Tashkent,100022,
Tel.: 99 307-01-68.

E-mail: chorvador@ list.ru
www.slib.uz



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“YAYLOV CHORVACHILIGI VA QORAKO‘LCHILIK:MUAMMOLAR VA SOHADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR”

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI TO‘PLAMI



Samarqand – 2024

UO'K: 636.32/.38.081

L.E.Shaptakova, *tayanch doktarant,*
A.Gaziyev q.x.f.d, *katta ilmiy xodim,*
Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

YARIM DOIRA QALAMGUL TIPIDAGI QORA RANGLI QORAKO'L QO'ZILARIDA GUL O'LCHAMINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya: *Maqolada "Muborak" zavod tipiga mansub bo'lgan qora rangli qorako'l qo'ylari avlodlarining gul o'lchamini o'rganish natijalari keltirilgan.*

Аннотация: *В статье приведены результаты исследований по изучению ширины завлетков ягнят, полученных от каракульских овец черной окраски Муборекского заводского типа.*

Abstract: *The article presents the results of research on the study of the width of the spawn of lambs obtained from black-colored Karakul sheep of the Muborek factory type.*

Kalit so'zi: *Qorako'l qo'ylari, qo'zilari, zavod tipi, sinf, gul tipi, gul o'lchami.*

Ключевые слова: *Каракульские овцы, ягнята, заводской тип, класс, завитковый тип, размер завитка.*

Key words: *Karakul sheep, lambs, factory type, class, curl type, curl size.*

Mavzuni dolzarbligi: Bugungi kunda qora rangli qorako'l terilariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Qorako'l qo'ylari turli cho'l mintaqalarida urchitiladi bu esa o'ziga xos sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Respublikamizda qorako'l qo'ylarini urchitish hamda qorako'lchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida keng miqyosda chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113- sonli qarorlarida sohani rivojlantirishga imkoniyatlar ochib berish bilan bir qatorda istiqbol uchun yangi vazifalar belgilangan. [1]

Qorako'l qo'ylarining mahsuldorligini oshirish borasida ularning mahsuldorlik va biologik salohiyatidan keng foydalanishga e'tibor qaratishi muhim. Bu esa kelajakda har xil sharoitga mos keladigan naslli avlodlarni olishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi PQ-4243 sonli "Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" [2] qaroriga asosan chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, hududlardagi ishlarning hozirgi holati mazkur tarmoq korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ozuqa bazasini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, shu jumladan sun'iy urug'lantirishni rivojlantirish va naslchilik xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida aniq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki "Muborak" zavod tipi bo'yicha qora rangli qorako'l qo'ylarini urchitish samaradorligini oshirishda ko'plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Qora rangli qorako'l qo'ylarining irsiy xususiyatlari "Muborak" zavod tipi bo'yicha I.N.Dyachkov, S.E.Shaptakov, T.B.Chexirinadze [4], T.B.Chexirinadze, V.I.Barkovskiy [7], boshqa tipli qo'ylarda A.Gaziyev, U.T.Fazilov, D.Rizayeva [3], M.A.Yeskara, J.A.Parjanov, A.Ajibekov [5] va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lib, ularda muhim seleksion belgilarning naslga berilish, namoyon bo'lish, irsiylanish, o'zaro bog'liqlik ko'rsatkichlari aniqlangan.

Qorako'l qo'zilari terisida gul o'lchamlarining sifatini baholash eng muhim asoslardan biridir. Gullarning o'rta o'lchami eng muhim ko'rsatkich bo'lib, teri sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ushbu ko'rsatkichga seleksiya jarayonida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Muborak zavod tipli qo'ylarning muhim seleksion belgilardan hisoblangan gul o'lchamlarini avlodlarga o'tkazish darajasini o'rganish tadqiqot maqsadi sifatida tanlandi.

Tadqiqot uslublari: Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati "Muborak" naslchilik MCHJda urchitiluvchi qora rangli qorako'l qo'ylarida olib borildi. "Qorako'lchilikda naslchilik ishlari asoslari va qo'zilarni

1-jadval.

Yarim doira qalamgul tipli avlodlarining gul o'lchami

Qo'ylarning gul o'lchami	n	Avlodlarning gul o'lchami, % (X±Sx)		
		mayda	o'rta	katta
Yarim doira eleta	122	19,7±3,6	75,4±3,9	4,9±1,95
Yarim doira I	295	16,9±2,18	74,6±2,53	8,5±1,62
O'rtacha muvozanatlashgan ko'rsatkich	417	17,8±1,87	74,8±2,12	7,4±1,28

bonitirovka qilish" asosida qo'zilarni baholash ishlari amalga oshirildi [8].

Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berildi [6].

Tadqiqot natijalari: Qorako'l qo'ylarining nasliy qimmatliligini belgilashda gul o'lchamlari o'ziga xos ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Gul o'lchamlarining o'rta bo'lishi ijobiy xususiyat bo'lib, qo'ylarning va qorako'l teri mahsulotining qimmatliligini oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu ko'rsatkichning namoyon bo'lish darajasi ko'plab omillarga, xususan yaylov iqlim va ozuqa sharoiti, qo'ylarning sinfi, gul tipi, gul o'lchami, rasmi, uzunligi hamda boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Ushbu ko'rsatkichni o'rganish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalari "Muborak" zavod tipiga mansub elita va 1-sinfli yarim doira qalamgul tipidagi qo'ylar avlodlariga o'rta gul o'lchamli avlodlar salmog'ining bo'lishini ko'rsatadi.

Ko'rib turganimizdek, jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan qo'ylarning gul o'lchamlarining o'rtacha daraja bo'yicha yuqori irsiy salohiyatini kuzatish mumkin. Ushbu holatda "Muborak" zavod tipidagi qo'ylar avlodlarida gul o'lchami o'rtacha muvozanatlashgan holatda 74,8±2,12% qo'zilarda namoyon bo'lib, elita sinfli qo'ylar avlodlarida 75,4±3,9%ni, 1-sinfli qo'ylar avlodlarida esa 74,6±2,53 foizni tashkil etishi aniqlandi.

Xulosa: "Muborak" zavod tipiga mansub qorako'l qo'ylari o'rta gul o'lchamlari bo'yicha yetarli darajadagi irsiy saloxiyat bilan xarakterlanadiki, bundan seleksiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1."Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-113- sonli qarorlari. Toshkent. 2023-yil 5-aprel. lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2019-yil 18-martdagi PQ-4243 sonli qarori.

3. GaziyevA., Fazilov U.T., Rizayeva D. Qora rangli qo'zilarda gullarning saqlanish va o'zgaruvchanlik ko'rsatkichlari. "Zooveterinariya" 2014. №9. 34-35 b.

4. Дьячков И.Н., Шаптаков С.Э., Чехиринадзе Т.Б. "Сохранност в свойств волосянного покрова и завитков у каракульских ягнят разных типов с возростом". "Коракулеводство" Тошкент 1981 г. (26-35 стр).

5. Ескара М.А., Паржанов Ж.А., Ажибеков А., Наследование признаковсмугиковости каракульских овец черной окраски скороспелого типа жомартовской популяции. Сб. Науг. Трудов ЮЗНИИЖиР. Т.2. Шимкент, 2017, с, 79-81.

6. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969. 156 стр.

7. Чехиринадзе Т.Б., Барковский В.И. "Значение соотношение типов зовитков в селекции черних каракульских овец жакетного смушкового типа" сборнк научных трудов ВНИИК т.г "Вопросы технологии ведение каракулеводства" Ташкент,1982.

8. Yusupov.S.Yu va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent 2015-y. 27 bet.

Ўринбаева М.М., Сулейманова М.М., Нарзиева Ф.Ф. – СУРХОНДАРЁ ШАРОИТИДА УРЧИТИЛАЁТГАН ҚЎЗИЛАРНИНГ ЁШ ДИНАМИКАСИ АСОСИДА ЭКСТЕРЬЕР КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ.....243

Hakimov O‘ktam Normuhamedovich, Tuxtamishev Mirjalol Hatam o‘g‘li, Baratov Ulugbek Dilshodovich, Xusainova M.A – KO‘K RANGLI QORAKO‘L QO‘YLARINING SELEKSIYASIDA GOMOZIGOTLIK (ALBINOIDLIK) MUAMMOLARI 246

Hakimov O‘ktam Normuhamedovich, Tuxtamishev Mirjalol Hatam o‘g‘li, Baratov Ulugbek Dilshodovich – NASLDOR QORAKO‘L QO‘YLARINI GENOMIK BAHOLASH ISTIQBOLLARI 248

Халилова А., Хусеинова М.А. – ҚОРА –ОЛА ЗОТЛИ БУҚАЧАЛАРНИНГ ЎСИШ ВА РИВОЖЛАНИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ 251

Сатторов Ф.Р. – СИММЕНТАЛЬ ЗОТЛИ СИГИРЛАРНИНГ СУТ МАХСУЛДОРЛИГИНИ УРГАНИШ 253

Yaxyayev Baxtiyor Sadullayevich – QO‘Y GO‘SHTI ISHLAB CHIQARISHDA UCH KOMPONENTLI OZUQA QO‘SHINCHASIDAN FOQDALANISH SAMARADORLIGI.....256

Serikova Aynur Temeshovna, Toktarxanova Shyryn Serikkyzy – «BALKE»FERMASIDA XOM SUTNING SIFATI VA XAVFSIZLIGI.....259

MAHSULOTLARNI ISHLASH CHIQARISH, SAQLASH VA QAYTA TEXNOLOGIYASI kafedrasi
“CHORVACHILIK MAXSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA ISHLASHNING MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” mavzusida XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2024 YIL 6 - IYUN

Tursunov Axmad, Yusupov Shuxrat Jumaqulovich, Tursunova Kamola Rahmatillo qizi – TOMAT MEVASINI YETILISHI VA SAQLANISHIDA BORADIGAN JARAYONLARNI O‘RGANISH ..264

Safarov Ulmas To‘xtamurodovich, Jahongirov Javlon Nuriddin o‘g‘li – SIGIR ZOTI VA YIL MAVSUMINING SUTNING REOLOGIK XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI.....266

Жамолиддинова Вилоятхон Жамолиддинова, Муминов Нажмиддин Нурмуродович, Турсунов Толибжон Тохиржон ўғли – ТОПИНАМБУР НАВЛАРИ ТУГАНАКЛАРИНИ САҚЛАШДА ХЎЖАЛИК ВА ТЕХНОЛОГИК ПАРАМЕТРЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ.....268

Жамолиддинова Вилоят Жамолиддиновна, Юсупов Шухрат Жумақулович, Мамарасулов Шохрух Неъматович, Абдухамидов Шахзод Шерзод ўғли – ТОПИНАМБУР ТУГАНАКЛАРИНИ ТУРЛИ КЕСИШ ХОЛАТЛАРИДА ҚУРИТИШНИ ХАРОРАТНИНГ ДАВОМИЙЛИГИГА БОҒЛИКЛИГИ 273